XORAZM VILOYATI URGANCH TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 4-noyabr | 457-12-173-Q/24 | Urganch tuman hokimligi

2025-yilda Urganch tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalari, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan, Urganch tumanida 2025-yil uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

2025-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasiga asosan, tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam miqdori (2-ilova) xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan kelib chiqqan holda 161 kishini tashkil etadigan, shu jumladan: o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi

bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun 27 ta ish o‘rni;

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 114 ta ish o‘rni;

- safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 5 ta ish o‘rni;

- nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 1 ta ish o‘rni;

- pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 9 ta ish o‘rni;

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun 5 ta ish o’rni;

- odam savdosidan jabrlangan, atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlangan ayollar uchun ish o‘rni 0.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

- 14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun - bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega;

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq;

- safarbarlik chaqiruvi zahirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun – ularning professional tayyorgarligiga mos;

- nogironlar uchun - mehnat sharoitlari bo‘yicha attestasiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘lig‘i holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operasiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan;

- pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

- jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

- odam savdosi qurbonlari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

4. Quyidagi ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar etib belgilansin:

muhandis, iqtisodchi, hisobchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, o‘qituvchi, tarozibon, elektrik, farrosh, o‘tyoqar, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, EHM operatori, yukchi, ishchi, bog‘bon, qorovul, o‘qituvchi.

5. Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasin;

2025-yil boshlanishidan kamida 10 kun oldin, zaxiraga qo‘yiladigan umumiy ish o‘rinlari sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yilishini va tayyorligini ta’minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazini xabardor qilsin;

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan 2025-yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlasin, bu haqda Urganch tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

- har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha Urganch tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha axborot taqdim etsin;

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga oylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi Urganch tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

6. Tuman hokimining ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, bunday shaxslarni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot, korxona va muassasalarning mansabdor shaxslariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan ma’muriy javobgarlik belgilanganligi alohida qayd etilsin.

7. Urganch tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (A.Ruzmetov) mazkur qarorni besh kun muddatda qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan tashkilot, korxona va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazilishini ta’minlasin.

8. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan kuchga kirishi munosabati bilan Urganch tumani hokimining 2023-yil 01-noyabr kungi 383-12-173-Q/23 qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qaror tuman hokimligining “Urganch haqiqati” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o’rinbosari P.Madraimov zimmasiga yuklatilsin.

Urganch tumani hokimi **Sultanov Gayratjon Po‘latovich**

Urganch tuman hokimining
2024-yil 4-noyabrdagi
457-12-173-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Urganch tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi

Komissiya raisi:

P.Madraimov - Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari

Komissiya raisining o‘rinbosari:

D.Karimov - Urganch tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i

Komissiya a’zolari:

U.Sultanov - Tuman hokimining o‘rinbosari

O.Abduraximov - Tumanxalq ta’limi bo‘limi mudiri

U.Niyazmetova - Tuman hokimligi huzuridagi jazoni ijro etish joylardan bo‘shatilgan shaxslarda ijtimoiy ko‘nikmalar hosil qilish markazi rahbari

Lavozim bo‘yicha - Tuman hokimligining bolalarni himoya qilish sho‘basi mudiri

Komissiya kotibi:

Sh.Safoyev - Urganch tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining Ishga joylashtirish va ishsizlarni hisobga olish bo‘yicha bosh mutaxassisi

Urganch tuman hokimining
2024-yil 4-noyabrdagi
457-12-173-Q/24-son qaroriga
2-ilova

2025-yilda Urganch tumani bo'yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yilgan ish o'rinlari to'g'risida

MA'LUMOT

№	Ijtimoiy muxofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini belgilangan korxona va tashkilotlar ro'yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Shtat jadvali bo'yicha xodimlarining umumiy soni	Zaxiraga qo'yilgan ish o'rinlari soni	shu jumladan:									
				14 yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz otaga yoki onaga, shuningdek ko'p bolali oilalarning ota-onalar uchun band	Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar uchun band qilingan ish	«Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o'rinlari soni	muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	nogironligi bo'lgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko'ra o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	odam savdosidan jabrlanganlar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Atrofdagilar uchun xavf tug'dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun ish o'rinlari soni	Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik natijasida jabrlangan ayollar uchun ish o'rnlari soni.

				qilingan ish o’rinlari soni	o’rinlari soni								
1	Urganch tuman Markziy kasalxona	1781	**16**	3	11	0	0	0	2	0	0	0	0
2	Tuman davlat sanitariya epidemologiya nazaorat markazi	70	**2**	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0
3	Respublika kordologiya markizi Xorazm filiali	253	**11**	3	7	0	0	1	0	0	0	0	0
4	Xorazm viloyat Urganch tuman vetenariya bo’limi	50	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0
5	PSU va YeAITI Xorazm ilmiy tajriba stantsiyasi	55	**2**	1	0	0	0	0	1	0	0	0	0
6	Obodonlashtirish boshkarmasi	227	**15**	2	2	0	1	0	5	5	0	0	0
7	Cholish suv yo'llari texnika bo'limi	40	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0
8	1- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	130	**3**	0	2	0	0	0	1	0	0	0	0
9	2- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	106	**3**	0	3	0	0	0	0	0	0	0	0
10	3- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	135	**2**	0	1	0	1	0	0	0	0	0	0
11	4- son Umumiy o'rta	64	**2**	0	1	0	1	0	0	0	0	0	0

1	ta’lim maktabi												
12	5- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	74	**2**	2	0	0	0	0	0	0	0	0	0
13	6- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	89	**2**	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0
14	7- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	101	**2**	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0
15	8- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	95	**2**	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0
16	9- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	44	**1**	1	0	0	0	0	0	0	0	0	0
17	10- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	84	**3**	0	3	0	0	0	0	0	0	0	0
18	11- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	81	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0
19	12- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	88	**2**	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0
20	13- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	42	**2**	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0
21	14- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	83	**2**	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0
22	15- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	102	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0
23	16- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	64	**2**	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0
24	17- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	78	**2**	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0
25	18- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	70	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0
26	19- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	68	**2**	0	1	0	1	0	0	0	0	0	0
27	20- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	83	**2**	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0
28	23- son Umumiy o'rta ta’lim maktabi	55	**2**	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0
2	24- son Umumiy	80	**2**	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0

9	o'rta ta'lim maktabi												
30	26- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	60	**2**	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0
31	27- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	80	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0
32	29- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	52	**2**	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0
33	31- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	32	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
34	32- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	68	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0
35	33- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	96	**3**	0	3	0	0	0	0	0	0	0	0
36	35- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	35	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
37	36- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	64	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0
38	38- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	82	**3**	1	2	0	0	0	0	0	0	0	0
39	39- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	78	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0
40	40- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	40	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
41	41- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	40	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
42	42- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	96	**3**	0	3	0	0	0	0	0	0	0	0
43	43- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	50	**2**	0	1	0	1	0	0	0	0	0	0
44	44- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	48	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
45	46- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	67	**2**	0	2	0	0	0	0	0	0	0	0
46	47- son Umumiy o'rta ta'lim maktabi	101	**3**	2	1	0	0	0	0	0	0	0	0
4	48- son Umumiy	50	**2**	2	0	0	0	0	0	0	0	0	0

7	o'rta ta′lim maktabi												
48	49- son Umumiy o'rta ta′lim maktabi	24	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
49	50- son Umumiy o'rta ta′lim maktabi	52	**2**	1	1	0	0	0	0	0	0	0	0
50	URGANCH TUMANI 1-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	40	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
51	URGANCH TUMANI 2-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	44	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
52	URGANCH TUMANI 3-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	30	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
53	URGANCH TUMANI 4-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	32	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
54	URGANCH TUMANI 5-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	61	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
55	URGANCH TUMANI 6-SON	39	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0

	DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI												
56	URGANCH TUMANI 7-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	33	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
57	URGANCH TUMANI 8-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	54	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
58	URGANCH TUMANI 9-SON MAXSUS IXTISOSLASHTIRILGAN DMTM	79	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
59	URGANCH TUMANI 10-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	35	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
60	URGANCH TUMANI 11-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	28	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
61	URGANCH TUMANI 12-SON DAVLAT MAKTABGACHA	37	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0

	TA'LIM MUASSASASI												
62	URGANCH TUMANI 13-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	28	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
63	URGANCH TUMANI 14-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	29	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
64	URGANCH TUMANI 15-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	31	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
65	URGANCH TUMANI 16-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	28	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
66	URGANCH TUMANI 17-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	36	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
67	URGANCH TUMANI 18-SON DAVLAT MAKTABGACHA TALIM	26	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0

	TASHKILOTI												
68	URGANCH TUMANI 19-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	30	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
69	URGANCH TUMANI 20-SON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	32	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
70	URGANCH TUMANI 21-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	36	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
71	URGANCH TUMANI 22-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	33	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
72	URGANCH TUMANI 23-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	41	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
73	URGANCH TUMANI 24-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	30	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0

74	URGANCH TUMANI 25-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	36	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
75	URGANCH TUMANI 26-SON DAVLAT MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTI	46	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
76	URGANCH TUMANIDAGI 27-SON DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	31	**1**	0	1	0	0	0	0	0	0	0	0
Jami:		**6512**	**161**	**27**	**114**	**0**	**5**	**1**	**9**	**5**	**0**	**0**	**0**